# Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

## “Huquq fanlari” yoʻnalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
| --- | --- |
| **Jinoyat protsessida voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan interaktiv elektron platformani yaratish**<br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- jinoyat protsessida voyaga yetmagan jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlash, ularga huquqiy, psixologik va axborot koʻmagini koʻrsatish, shuningdek mazkur yoʻnalishda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar doirasida ilgari surilgan taklif va xulosalardan huquqni qoʻllash amaliyotida foydalanish hamda takliflarni vakolatli davlat organlari faoliyatida aprobatsiyadan oʻtkazishga qaratilgan innovatsion loyiha bajariladi;<br>- jinoyat protsessida voyaga yetmagan jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro standartlar (BMT Bolalar huquqlari konvensiyasi, “child-friendly justice” tamoyillari) hamda milliy qonunchilik asoslari yuzasidan tahliliy ma’lumot tayyorlanadi;<br>- jinoyat protsessida voyaga yetmagan jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishni ta’minlashga qaratilgan interaktiv platformaning innovatsion dasturiy ta’minoti boʻyicha texnik topshiriq ishlab chiqiladi;<br>- voyaga yetmagan jabrlanuvchilar bilan ishlash boʻyicha oʻquv kurslari dasturi, ma’ruzalar matni, uslubiy qoʻllanmalar, amaliy keyslar, topshiriqlar, mashgʻulotlar, testlar va imtihon-sinov savollari ishlab chiqiladi va chop etiladi;<br>- jinoyat protsessida voyaga yetmagan jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishga oid axborotni jamlash, tahlil qilish, tarqatish, onlayn huquqiy va psixologik xizmat koʻrsatish, murojaatlarni qabul qilish, ularni koʻrib chiqish va monitoring qilish, shuningdek masofaviy elektron nazoratni amalga oshirishga moʻljallangan interaktiv dasturiy ta’minot va platforma yaratiladi.<br>**Natijalarni sinovdan oʻtkazish.** Olingan natijalar Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligiga qarashli tashkilotlarda sinovdan oʻtkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida **Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligining** xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Bosh prokuratura, Oliy sud yoki Ichki ishlar vazirligining** qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi. |